


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova**

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida ..... 6

**A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni ..... 9

**A.Y.Toyirov**

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni ..... 16

---

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

**G.T.Kabulniyazova**

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi ..... 27

**X.N.Xolmirzaev**

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

**S.S.Evato**

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

**I.A.Asatulloev**

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

**B.X.Tolipov**

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari ..... 46

**Sh.Q.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi ..... 50

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

**L.K.Axatov**

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

**J.A.Mamanov**

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari ..... 63

**I.I.Umrzakov**

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

**Sh.A.Ismailov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari .... 74

**R.S.Raupova**

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni ..... 78

**M.A.Rahmonova**

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni ..... 84

**D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev**

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

**B.B.Dehqonov**

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati ..... 96

**A.Z.Sharipov**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

**L.B.Ikromova**

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

**A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov**

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati ..... 111



UO'K: 364.01(575.1)

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA VA IJTIMOIY SIYOSAT  
YURITISHNING ASOSIY OMILLARI**

**ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ И РЕАЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ  
ПОЛИТИКИ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ**

**MAIN FACTORS OF SOCIAL PROTECTION AND SOCIAL POLICY IMPLEMENTATION IN  
RENEWING UZBEKISTAN**

Ismailov Shuxrat Atamurodovich 

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

**Annatotsiya**

*Ushbu maqolada Rivojlangan davlatlar tarixi iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijtimoiy masalalarni hal qilish bilan barobar olib borish joizligini ko'ssatadi. Mamlakatimizda adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish tarmoyillari, ijtimoiy kelishuv, hamjihatlik, millatlararo totuvlik haqida fikr yuritilgan. Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida aytib o'tilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье история развитых стран показывает, что наряду с решением социальных вопросов допустимо осуществлять меры, направленные на оздоровление экономики. В нашей стране обсуждались принципы справедливой социальной политики, социального согласия, солидарности и межэтнического согласия. Было упомянуто о реформах, реализуемых в социальной сфере.*

**Abstract**

*In this article, the history of developed countries shows that it is permissible to carry out measures aimed at improving the economy along with solving social issues. In our country, the principles of fair social policy, social agreement, solidarity, and inter-ethnic harmony were discussed. It was mentioned about the reforms implemented in the social sphere.*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, jamiyat institutlari, ijtimoiy kelishuv, jamoat xavfsizligi, adolatlilik fuqarolik jamiyat, ijtimoiy norozilik.

**Ключевые слова:** социальная защита, социальная политика, социальные институты, общественное соглашение, общественная безопасность, справедливое гражданское общество, социальный протест.

**Key words:** social protection, social policy, social institutions, social agreement, public security, just civil society, social protest.

**KIRISH**

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, biz mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyatlar mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tenglik bo'yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. [8.-B.13.]. O'zbekiston XDPning ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishga bel bog'lagani uning mamlakat siyosiy kuchlari so'l qanoti bo'lishini belgilaydi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida inson huquqlari va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar kechmoqda. Bu kabi demokratik islohotlarni izchillashtirish,

## FALSAFA

iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash hamda erkin bozor munosabatlari yanada rivojlantirish davrida ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash choralarini tizimli ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlar tarixi iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijtimoiy masalalarni hal qilish bilan barobar olib borish joizligini ko'rsatadi. Bu amaliyat jamiyat va davlat o'tasidagi munosabatlarni mustahkamlab, barqaror rivojlanishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa rivojlangan davlatlarda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar barham topadi, yuzaga kelayotgan har qanday masala davlat va jamiyat institutlarining o'zaro ijtimoiy kelishuvi orgali hal qilib boriladi. Aks holda, ijtimoiy norozilik va kelishmovchiliklар keskinlashib, jamoat xavfsizligi, odamlar tinchligi va osoyishtaligiga rahna soluvchi omillar ko'payaveradi. Shu ma'noda, mamlakatimizning yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingen adolatli ijtimoy siyosat yuritish tamoyillari, avvalo, ijtimoy kelishuvni, hamjihatlikni, millatlararo totuvlik va birdamlikni ta'minlashga qaratilgan. [1.-B.22.]

Bizningcha, ijtimoiy davlat – ijtimoiy adolatning asosi yuqorida fikrlardan ma'lum bo'ladi. Unga ko'ra jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasidir. Bu borada E.Renan ta'kidlaganidek, Rim imperiyasi davrida davlat yordami faqat imperatorlar Nerva va Troyak davrida vujudga kelgan va Mark Avreliy davrida o'zining eng yuqori gullab-yashnashiga erishgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatda ijtimoiy davlat – ijtimoiy adolatning asosi sifatida ijtimoiy sohadagi islohotlarning samaradorligiga erishish uchun mayjud muammolarni bartaraf etish lozim:-aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamонави axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimini yanada rivojlantirish;-kam ta'minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini ob'ektiv baholash va sub'ektiv yondashuvlarni bartaraf etish;-nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha faoliyatni davom ettirish; implementatsiya(*lot. implere - bajarish, ijo etish; ing. implementation*) – davlat tomonidan xalqaro huquqiy normalarni o'z milliy konunchiligidagi joriy kilish hududida amalga oshirish. Implementatsiya xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka qo'shish (ko'chirish, singdirish) yo'li bilan hamda xalqaro huquqiy normalarni milliy huquqiy tizimning bir qismi deb e'lon qilish va davlatning butun huquqiy tizimi yoki huquqiy tartibga solishning muayyan sohasi doirasida xalqaro huquqiy normalarning milliy huquq normalariga nisbatan ustunligini o'rnatish yo'li-tibbiy yordam darjasini va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o'sish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va oldini olish.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida modernizatsiyalashni amalga oshirishda "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" shiori barcha sohalarda namoyon bo'lmoqda. Yangilanishlar jarayonlari xukumatimiz tomonidan reja bo'yicha, ishchi xaritasi asosida iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy himoya choralarini ishlab chiqish, zamонави uylar barpo etish, fuqarolarning ijtimoiy muhitini yaxshilash, bandlik masalasi, ish xaqlarini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmоqda. Shu bilan birga yoshlarni ma'rifatli qilishda ilm-fan, zamонави ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Faqat ma'rifatgina insonni kamolotga, jamiyatni esa taraqqiyotga olib boradi. Shuning uchun hozirda davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim olish xuquqini kengaytirishga va bu yo'l bilan jamiyatda oliy ma'lumotli mutaxassislarni ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. [2.-B.53.]

Jamiyatimizda har bir inson demokratik o'zgarishlar mazmun-mohiyatini teran his qilayotgani, islohotlar tufayli o'z imkoniyatlarini to'la ro'yoga chiqara olishini anglay olgani va eng muhim, o'z tasavvurlarini jamiyat va davlat intilishlari bilan uyg'unlashtirgani oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarga erishishimizda g'oyat muhim omil hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan referendum ko'p millatli xalqimizning hamjihatligi va birdamligini ko'rsatib berdi hamda bosh qonunimiz normalari asosida davlatimiz bilan bir tan, bir jon bo'lib jamiyatimizni yangilash, ertangi kunimiz bugundan ko'ra yaxshiroq bo'lishini ta'minlashga bel bog'laganining yorqin namunasi bo'ldi. Konstitutsiyaviy o'zgarishlar oxirgi yillarda shiddat bilan kechayotgan islohotlar natijasi o'larоq shakllangan davlatimiz va jamiyatimiz yutuqlarining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy qiyofasida o'z aksini topdi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Konstitutsiya normalari davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurishni hamda ijtimoiy adolat va ijtimoiy birdamlik tamoyillari asosida xalq

farovonligini oshirish, aholining zaif qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, har bir insonga tinch va munosib hayot kechirishiga imkon beradigan shart-sharoitlar yaratilishini belgilab berdi".

Eng asosiysi, bu normalar demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati asoslarini yanada mustahkamladi. Bunday jamiyatda davlat idoralari, davlat hokimiyatining har qanday bo'g'inida xizmat qilayotgan xodimlar xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiyamiz hamda u asosida qabul qilingan qonunlarda belgilangan inson huquq va erkinliklarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi va bu faoliyatda ijtimoiy adolat, qonuniylik tamoyillariga tayanadi. Ijtimoiy adolatning asosiy jihatiga to'xtalar ekanmiz, davlat idoralarining barcha darajadagi xizmatchilari maqsadi millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir fuqaroning talab-istikclarini qondirishga qaratilganida namoyon bo'lib, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda xalqimizning azaldan insonparvar, odamoxun fazilatlari hamma narsadan ustun qo'yilgani, inson tom ma'noda e'zozlanganidan darakdir. Yana bir muhim masala. Davlatimiz konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlab qo'yilganidek, xalq manfaati yo'lida hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan, ijtimoiy sohada islohotlarni amalgaga oshirar ekan, birinchi navbatda, ular adolatni ta'minlashga, ya'ni har bir inson huquq va erkinliklarini to'laqonli, hech qanday kamsitishlarsiz ro'yobga chiqarishga, aholi farovonligini, jamiyatimiz birlamchi bo'g'ini bo'lgan oilalarda munosib va barqaror turmush tarzini kafolatlashga yo'naltirilgandir. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining munosib, erkin va farovon hayotini ta'minlash, har bir inson huquq va imkoniyatlardan to'liq foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. [3.-B.21.]

Ijtimoiy siyosat, uni ro'yobga chiqarish mexanizmlari fuqarolarning mehnat faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ham iborat. Bu, o'z navbatida, aholi turmush darajasi keskin pasayib ketishining, daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi, jamiyat osoyishtaligi va barqarorligini ta'minlash, islohotlarga ishonch mustahkamlanishi omili bo'ladi. Har qanday davlatda turli ko'rinishdag'i tengsizlik ko'paysa va bunga imkoniyat beradigan omillar mavjud bo'lsa, ijtimoiy barqarorlikka putur etadi. [4.-B.28.]. Ijtimoiy tabaqalar o'tasida keskin farq paydo bo'lishi jamiyatda qarama-qarshiliklar, ichki mojarolar kelib chiqishiga zamin yaratadi. Shuning uchun demokratik davlatning eng muhim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olish, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hal qilish, odamlar turmush sharoitini yaxshilab borishdan iborat bo'lmoqda. Bunday sharoitda davlat xizmatchilari islohotlar mazmun-mohiyatini juda yaxshi anglab etishi talab etiladi. Aks holda, ijtimoy adolat buzilishi, korrupsiya holatlari urchishi, muayyan ijtimoiy masala yuzasidan qiynalib turgan insonning shunday ham og'ir ahvolini yanada og'irlashtirishi, jiddiy ijtimoiy beqarorlik vujudga kelishiga sababchi bo'lib qolishi, fuqarolar tinchligi, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Ayonki, olib borilayotgan izchil islohotlar hamda xalqimizning fidokorona mehnati tufayli O'zbekistonning jahon maydonidagi o'rni va mavqeい tobora yuksalmoqda. [5.-B.18.].

Maxsus imkoniyatlar O'zbekistonda kechayotgan bugungi o'zgarishlar mamlakat yangi tarixini boshlab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda yuz berayotgan ulkan yangilanishlar davlatimizning dunyo hamjamiyati bilan tom ma'noda integratsiyalashuvini ta'minlamoqda.

Bugun yurtimiz dunyonи o'ziga chorlayapti, yopiqlikdan ochiq pragmatik siyosat sari yuzlanmoqda. Bunday tutum, shubhasiz, bugungacha mavjud bo'lgan tartib-qoidalarni isloh qilish va ularni dunyo andozalariga uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan mutlaqo yangicha ijtimoiy siyosatning mazmun va mohiyatini dunyo jamoatchiligiga etkazish, qolaversa, davlat organlari, va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o'zaro hamjihatligi va sherikligi istiqbollarini belgilab olishni rejalashtirmoqdamiz. [6.-B.22.].

O'zbekistonning ochiqligini, faol, amaliy hamkorlikka, xalqaro va chet el tajribalarini o'rganish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha vazifalarni hal etishga tayyorligini ham namoyish etadi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tenglik bo'yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib borilmoqda. O'zbekiston XDPning ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishga bel bog'lagani uning mamlakat siyosiy kuchlari so'l qanoti bo'lishini belgilaydi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. [7.-

## FALSAFA

B.14.]. Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. [8.-B.51.].

Adolatli ijtimoiy siyosat aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan har bir islohotga adolat nuqtayi nazaridan yondashish, jamiyat qatlamlarining hech qaysisini e'tibordan chetda qoldirmaslik, ularga bir xilda va teng imkoniyat hamda sharoitlarni yaratib berish, jamiyatda o'rnini topishiga ko'maklashadi.

Davlatimizda amalga oshirilayotganadolatli ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilar: har bir shaxsning mehnat qilishi, bilim olishi huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash; aholining barcha qatlamlarini, bиринчи navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoya mexanizmini ishlab chiqish; ishsizlikning oldini olish; ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish; aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik; aholi farovonligini ta'minlashning chora-tadbirlarini yaratish va boshqalar. Bu vazifalarning amalga oshirilishi kelgusi taraqqiyotning yuksak rivojlanishiga olib keladi. [9.-B.11.].

Jamiyatni ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish – birinchidan, ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlashni yanada kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ikkinchidan, ijtimoiy dorixonalarning rivojlangan tarmog'ini yaratish, uchinchidan, aholi bandligi va fuqarolarning real daromadlarini oshirish, to'rtinchidan, "Iste'mol savatchasi"ni aniqlash, beshinchidan, ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, oltinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash kabi qator innovatsion usullari shakllanishidir.

## XULOSA

[O'zbekistonda inson qadri davlat siyosatining poydevoridir. Xususan, bunda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz tomonidan kam ta'minlangan oilalar, ayollar, yoshlar, keksalar, shuningdek, nogironlarga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda. Ko'rsatilayotgan yordam manzillidir, ya'ni faqat ehtiyojmand odamlarga beriladi. Uning maqsadi odamlarga hayotdagি qiyin damlarni engib o'tishga yordam berish, ularda kelajakka ishonch uyg'otishdir.

Mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan – ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin. [190].-B.23.]. So'nggi yillarda kambag'allikni engishga hissa qo'shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o'rinnari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiyl o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash uchun emas, balki jamiyat a'zolarini ham jismoniy, ham ma'nnaviy jihatdan kamol toptirish vazifikasi ustuvor bo'lishi zarur. Bugungi kunda – mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sون Farmoni. .2023.
2. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent. O'zbekiston. 2021.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Узбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2022.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент.: Маънавият, 2008.
5. Mayo E. The Human Problems of an Industrial Civilization. NewYork :VikingPress, 1960.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.
7. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.
8. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
9. Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси. Тошкент."Ўзбекистон", 1993.
10. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sон.